

Nizoni sudgacha hal etish imkoniyati va usullari

“O‘zmilliybank” AJ kredit shartnomasi bo‘yicha nizoli vaziyat vujudga kelgan taqdirda nizoni sudgacha hal qilish (yozma ravishda ogohlantirish xati yoki talabnama yuborish) tartibiga qat’iy rioya etadi.

Bank filiali kredit shartnomasida nizoli vaziyat vujudga kelgan taqdirda taraflar nizoni o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilishga harakat qiladi. Bunda taraflar o‘zaro talabnama yozish ishlarini olib borishlari lozim. Ogoohlantirish xati yoki talabnama pochta aloqasi orqali maxsus buyurtma xat orqali yuboriladi yoki shaxsan mijozga (vakiliga) tilxat olish asosida topshiriladi.

Mijoz tomonidan belgilangan to‘lov jadvaliga asosan to‘lovlarni qaytarilishi 1 (bir) kunga kechiktirilsa, aloqa vositalari orqali to‘lov jadvali bo‘yicha to‘lov muddati o‘tganligi haqida xabar beriladi.

Mijoz tomonidan to‘lov jadvaliga asosan to‘lovlarni qaytarilishi 3 (uch) kundan oshganda jismoniy shaxs bo‘lgan mijozga ogohlantirish xati, yuridik shaxs bo‘lgan mijozga talabnomalar yuboriladi. Ogoohlantirish xati yoki talabnama nusxasini kafil yoki garov ob’ekti egasiga ham yuboriladi.

To‘lovlar belgilangan to‘lov jadvaliga asosan kechikishini 30 (o‘ttiz) kunga kechiktirilgan taqdirda qarzdorga va kafilga oxirgi uchinchi ogohlantirish xati yoki talabnama yuboriladi va talab qilingan vaqtida to‘lovlar amalga oshirilmasa, kredit yig‘ma jildi undiruvni garov ob’ekti (yoki qarzdorning boshqa likvidli mol mulki)ga qaratish jarayonlari boshlanganligi to‘g‘risida xabardor qilinadi.

Ogoohlantirish xati yoki talabnama yuborilganidan keyin mijoz tomonidan to‘lov amalga oshirilmagan taqdirda, bank vakillari mijoz bilan uchrashadi. Muzokara o‘tkazish jarayonida, kredit to‘lanmayotganligi holati o‘rganiladi va kredit qarzdorlikni to‘lash yuzasidan mijozga muddat berish yoki kredit qarzdorlikni undirish yuzasidan sudga da’vo arizasi kiritish masalasi joyida hal etiladi.

Muzokara o‘tkazish jarayonida, nizoni xal qilish imkoni bo‘lmagan taqdirda, Bank O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmalariga xat orqali murojaat qilish yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri sud organlariga da’vo kiritish orqali kredit qarzdorliklarini muddatidan oldin undirish choralarini ko‘radi.